



O'ZBEKISTON SSR FANLAR AKADEMIYASINING URUSHDAN KEYINGI YILLARDAGI FAOLIYATI

Hasanova Ismigul Mirxodi qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
Tarix fakulteti II bosqich magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11000986>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-April 2024 yil

Ma'qullandi: 15-April 2024 yil

Nashr qilindi: 20-April 2024 yil

KEY WORDS

Fanlar akademiyasi, ilmiy-tadqiqot muassasasi, aniq fanlar, tabiiy fanlar, Yadro fizikasi instituti, geologiya, minerologiya jamiyati, Matematika instituti, Sharqshunoslik instituti, Falsafa va huquq institutlari, arxeologiya, tarix, muzeylar.

ABSTRACT

Mazkur maqolada O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasining urushdan keyingi yillardagi faoliyati, jumladan, ilmiy tadqiqot muassasalari va ularda aniq va tabiiy hamda ijtimoiy-gumanitar fanlar doirasida amalga oshirilgan ishlar ko'lami, xalqaro ilmiy aloqalar yoritilgan. Ilmiy-tadqiqot muassasalarining tashkil topishi va akademiya tarkibiga kiritilishi, ularning tashkiliy negizidagi o'zgarishlar, erishilgan ilmiy-amaliy yutuqlar aniqlab berilgan.

Ikkinchi jahon urushi tugagandan keyin Fanlar akademiyasi faoliyati yangi bosqichga ko'tarildi: ilmiy tadqiqotlar salmog'i ortib bordi, ilmiy-tadqiqot institutlari va laboratoriyalar kengaydi, olimlarning ilmiy va ijodiy aloqalari mustahkamlandi, yosh fan nomzodlari va olimlar boshqa shaharlarga o'zaro bilim almashish uchun jo'natildi. Masalan, 1945-yilning o'zidayoq 50 nafar mutaxassislar Moskva, Leningrad shaharlariga yuborildi. 1947-yil 9-14-iyunda bo'lib o'tgan akademiyaning ilmiy sessiyasi akademiyaning dastlabki yillaridagi faoliyatiga yakun yasadi [1]. Urushdan keyin akademiyaning oldida xalq xo'jaligini tiklash ishlariga olimlarni muvofiq tarzda jalb etish, o'lkadagi ishlab chiqarish kuchlarini har tomonlama o'rganish va uni takomillashtirish, madaniy hayot shakllanishida olimlarning rolini yana-da orttirish kabi dolzarb masalalar turar edi. Urushdan keyingi yillarda akademiya tarkibida yangi institutlar tashkil etila boshladi, xususan, 1950-yil botanika, biologiya va parazitologiya, 1952-yil falsafa kafedrasini, 1954-yil chet tillar kafedrasini hamda turli laboratoriyalarga asos solindi.

1947-1952-yillarda O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi tarkibida Fizika-matematika fanlari bo'limi, Texnika va Geologiya fanlari bo'limi, Gumanitar fanlar bo'limi va Ishlab chiqarish kuchlarini o'rganish Kengashi singari 4 ta bo'lim faoliyat ko'rsatgan [2]. 1958-yilda 4 ta bo'lim bo'lgan. Ular Fizika-matematika fanlari, Texnika va geologiya-kimyoyo fanlari, Biologiya fanlari va Ijtimoiy fanlar bo'limlari bo'lgan [3].

1959-yil 25-iyulda O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti va O'zbekiston SSR Vazirlar Kengashining №534-sonli Qarori qabul qilingan edi. Undagi asosiy masala akademiyaning ilmiy va tashkiliy

faoliyatini takomillashtirish edi. Keyingi yillarda akademiya faoliyatini rivojlantirish ishlari davom ettirildi. 1959-yilning o'zidayoq akademiya 20 million so'mlik jihozlar bilan ta'minlanadi. Yetti yil mobaynida Fanlar akademiyasi uchun 276 million so'm miqdorida kapital mablag' ajratildi. Bu akademiya tashkil etilgan davrdan beri sarflangan xarajatlardan ko'proq miqdor edi. Fanlar akademiyasi ilmiy muassasalari kadrlarining va moddiy texnika bazasining mustahkamlanishi bilan ularning ilmiy faoliyati ham kengayib bordi. Bu jarayon akademiya tomonidan ilmiy asarlarni ko'plab nashr qilishda ham o'z aksini topadi. 11 yil davomida, ya'ni 1947-yildan 1958-yilgacha bo'lgan davrda nashr etilgan asarlar soni muntazam ortib bordi. Masalan, 1947-yil umumiy hajmi 280 nashriyot listda, 49 ming nusxada 47 nomdagi asar chop etilgan bo'lsa, bu ko'rsatgich tegishli ravishda 1800 nashriyot listda, 638 ming nusxada 237 nomda ilmiy asarlar nashr etildi. Akademiya tarkibida faoliyat ko'rsatuvchi ilmiy xodimlar soni ham orta bordi. 15 yil ichida ularning soni 210 tadan 1800 taga yetdi. Ulardan 87 nafari fan doktori, 450 tasi fan nomzodlari edi. 1945-1959-yillar davomida Fanlar akademiyasi institutlari aspiranturada tahsil oladiganlar orasidan 350 kishi nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. Aspiranturaga qabul kvotalari va undagi mahalliy aholi soni ham sezilarli ortdi. 1958-yilda aspiranturaga qabul qilingan 164 ta kishilarning 93 tasi o'zbek edi. Alohida ahamiyat berish joiz bo'lgan tomoni shundaki, ularning 40 nafardan ortig'i xotin-qizlar edi. 1975-yilda ilmiy asboblarni yaratish bo'yicha Markaziy loyiha-konstruktorlik va texnologik byuroni yaratish to'g'risida qaror qabul qilindi. Ushbu alohida yo'nalishning rivojlanishi uchun asos XX asrning 60-yillarida boshlangan tadqiqotlar edi [4]. O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasida 1962-yilga kelib 32 ta ilmiy muassasani o'z ichiga olgan [5]. 1960-yilda O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston filialining ochilishi katta voqea bo'ldi [6]. 60-yillar o'rtasida respublika Fanlar akademiyasi sistemasida 22 ilmiy muassasa, shu jumladan, 15 ilmiy tadqiqot instituti, ularning filial va bo'limlari bo'lgan [7]. 1965-1975-yillarda O'zbekiston SSR Fanlar Akademiyasida ilmiy muassasalar soni 22 tadan 31 taga ko'paydi [8].

Matematika instituti. O'zbekistonda matematik tadqiqotlarni rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratgan omil bu 1943-yil O'zFAN SSSR Fizika-matematika fanlari bo'limi asosida matematika institutining tashkil topishi bo'ldi. 1948-yil matematik tahlil va mexanika, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika hamda nazariy geofizika singari 3 ta bo'limdan iborat bo'lgan, dastlabki vaqtlarda Matematika va Mexanika instituti deb nomlangan. 1954-yildan e'tiboran Toshkent Matematika maktabining asoschisi – O'zbekiston FA akademigi V.I. Romanovskiy nomini oldi. Institut tashkil etilganida faqat 12 nafar xodim ishlagan. Ular orasida V.I. Romanovskiy, N.N. Nazarov, T.A. Sarimsoqov, V.A. Jorjio, I.S. Arjanix kabi professor va akademiklar bor edi. 1943-1947-yillarda institutga professor N.N. Nazarov, 1947-1950-yillarda professor V.A. Jorjio, 1950-1952-yillarda akademik V.I. Romanovskiy, 1952-1957-yillarda akademik V.A. Bugayev, 1957-1960 va 1962-1967-yillarda akademik S.H. Sirojiddinov, 1960-1962-yillarda muxbir a'zo V.I. Gubin, 1967-1985-yillarda akademik M.S. Salohiddinov, 1985-1992-yillarda akademik T.J. Jo'rayev direktorlik qilgan.

Yadro fizikasi instituti 1956-yil iyul oyida tashkil etilgan. Uning ochilishida akademiklar I.V. Kurchatov, U.O. Orifov, S.A. Azimovlarning beqiyos xizmatlari bor. Uning dastlabki direktori U.O. Orifov (1956-1962, 1967-1969) edi. 1960-1964-yillarda institut tarkibida fizika laboratoriyalari va gamma-tezlatgichlar binolari qurib topshirildi. Qisqa davr ichida ushbu institut jahon miqyosida tan olingan tadqiqot markazi bo'lishga ulgurdi.

Xodimlarning sermahsul faoliyati natijalari 57 monografiya va to'plam, 3000 dan ko'proq ilmiy maqola hamda ixtirolar uchun 250 ta mualliflik guvohnomasida o'z aksini topgan. Bundan tashqari, Yevropa yadro tadqiqotlar markazi (Shveytsariya), Fermi nomidagi Milliy tezlatgichli laboratoriya, Viskonsin va Vashington dorilfununi (AQSH), "TRIUMF" yadro markazi (Kanada), Yadro tadqiqotlari Birlashgan instituti (Rossiya), shuningdek, Belgiya, Italiya, Koreya, Pokiston, Kuba davlatlarining tegishli ilmiy markazlari bilan xalqaro ilmiy aloqalar yo'lga qo'yildi.

Elektronika instituti. Bu sohadagi dastlabki ishlar 30-yillarda G.N. Shuppe, S.V. Stradubsev, L.N. Dobresev boshchiligida boshlangan bo'lib, O'zbekiston SSR FA Elektronika bo'limida U.O. Orifov rahbarligida davom etirilgan. Ayni shu bo'lim asosida 1967-yilda institut tashkil etildi. 1967-1974-yillarda U.O. Orifov, 1974-1978-yillarda P.U. Orifov, 1978-1985-yillarda akademik M.S. Saidov, 1985-yildan O'.H. Rasulev rahbarlik qildi. Institut olimlari bir qator yutuqlarni qo'lga kiritishdi: T. Usmonov lazer nurlanishi oliy garmonikaga aylanishini nazariy va amaliy jihatdan isbotlab berdi, O'. Rasulev qattiq jism sirtida atomlar va molekular termodesorbsitsiyani o'rgandi, B. Abdurahmonov xossalari oldindan belgilangan eksperimental tuzilmalarni olish texnologiyasini ishlab chiqdi. Qo'lga kiritilgan amaliy yutuqlar uchun xodimlar turli yillarda SSSR Davlat mukofoti, Beruniy nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti, O'zbekiston Lenin komsomoli mukofoti bilan taqdirlandi.

Kimyo instituti. Mazkur institut respublikamizdagi kimyo sohasi bo'yicha eng dastlabki muassasalardan biri hisoblanadi. Dastlab 1933-yilda O'zbekiston mahalliy sanoati ilmiy-tadqiqot instituti bazasida tashkil qilingan, 1939-yilda Fan komitetiga, 1940-yil SSSR FA O'zbekiston filiali tarkibiga o'tkazilgan. Birinchi direktori professor Y.T. Toshpo'latov bo'lgan. Keyinchalik akademiklar O.S. Sodiqov, S.Y. Yunusov, H.U. Usmonovlar, kimyo fanlari doktori Y.Y. Aliyev, akademik K.S. Ahmedov, muxbir a'zolar M.A. Asqarov, B.M. Beglovlar boshqarishdi. Institutning faoliyati noorganik kimyo va kolloid kimyo yo'nalishlarini rivojlantirishga qaratildi. Xalq xo'jaligi uchun ahamiyatli bo'lgan bir qator muvaffaqiyatlarga erishildi: neft va ko'mirlarning issiqlik sifatini baholash, chigit, danak mag'izlarini ekstraksiya qilish va qayta ishlash, sement korroziyasining oldini olish, gidroliz sanoatining keyingi taraqqiyoti uchun vodorod va kislorodning o'ta kuchlanish masalalaridagi yutuqlar.

Biologiya fanlari bo'limi FA tarkibida 50-yillarda tashkil etilgan. Bo'lim tarkibida 1991-yil holatigacha 9 ta institut mavjud edi. Bular quyidagilardan iborat: "Biolog" ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasi bilan O'simliklar eksperimental biologiyasi instituti, Mikrobiologiya, Botanika, Biokimyo, Zoologiya, Tuproqshunoslik va agrokimyo, Fiziologiya va biofizika, Genetika institutlari, Botanika bog'i. Akademik M.V. Muhammadjonov boshchiligida sug'oriladigan yerlar unumdorligini oshirish va qishloq xo'jaligi ekinlarining serhosil navlarini yaratish bo'yicha ilmiy-amaliy yutuqlar qo'lga kiritildi. Akademik A. Yunusov asos solgan fiziologlar ilmiy maktabi sohaning yetuk professorlari yetishib chiqishida muhim rol o'ynadi. O'zbekiston FA akademiklari T.Z. Zohidov, A.M. Muhammadiyevlar hamda FA muxbir-a'zolari V.V. Yaxontov, M. A. Sultonovlarning ilmiy maktabi zoologiya fanining kelgusi tarrqiyotida muhim rol o'ynadi. Zoologiya instituti dastlab O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasining Zoologiya va parazitologiya instituti sifatida 1950-yilda tashkil topgan [9]. O'rta Osiyoda ilk bor tashkil etilgan Bioorganik kimyo institutining asoschisi va birinchi direktori akademik A.S. Sodiqov edi [10].

Ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'limida 1991-yil holatigacha 9 ta ilmiy tadqiqot instituti, 2 ta

muzey va 2 ta kafedra faoliyat olib borgan. Bular: Iqtisodiyot instituti, Ishlab chiqarish kuchlarini o'rganish bo'yicha kengash, I. Mo'minov nomidagi Falsafa va huquq instituti, Y. G'ulomov nomidagi Arxeologiya instituti, Tarix instituti, Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, H. Sulaymon nomli Qo'lyozmalar instituti, A. Navoiy nomidagi Adabiyot instituti, Tilshunoslik instituti, A. Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi, Oybek nomli O'zbekiston tarixi muzeyi, Falsafa kafedrası va Chet tillar kafedrası. O'zbekiston poytaxti – Toshkent sovet sharqshunosligining markazlaridan biriga aylandi. 80-90-yillarda tarixshunoslik va manbashunoslik sohasidagi ishlar ancha rivojlandi. "O'zbekiston tarixi manbalarda" turkumidan rus tilida uchta (qadimgi davr, o'rta asrlar, yangi davr) kitob nashr etildi [11]. Respublika Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida jahonda eng ko'p Sharq qo'lyozmalari (80 ming alohida asardan iborat 15 ming tom) va litografiya nashrlari (20 ming nusxa) yig'ilgan va saqlanmoqda [12]. Har bir institut o'z ilmiy sohasi yo'nalishida ko'plab yutuqlarga erishdi, taniqli akademik va professorlar yetishib chiqdi, muzey fondlari boyitildi, xalqaro ilmiy aloqalar, ayniqsa, qo'shni respublikalar bilan yaxshi yo'lga qo'yildi.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси 50 йил. –Тошкент: «Фан», 1993. -246 б.
2. Исмаилов А.Ф. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академиясининг ташкилий фаолияти (монография). – Тошкент, 2022. -191 б.
3. Академия наук Узбекской ССР. Справочник. –Ташкент, 1958. 150 с.
4. Академия наук в интеллектуальной истории Узбекистана (монография). – Ташкент, «YANGI NASHR» нашриёти, 2012. -231 б.
5. O'z R FA MA 1-fond, 1-ro'xat, 101-yig'majild, 105-109-varoqlar.
6. Орифов У.О. Совет Ўзбекистонининг фани. –Т.:, «Ўзбекистон», 1964. - 64 б.
7. Оқилов. К.О. Совет Ўзбекистониди илм-фан ва маданиятнинг равнақи. –Т.: Ўзбекистон, 1985. –Б.19.
8. Науки в Узбекистане за годы советской власти. – Ташкент.: "ФАН". – С.20.
9. Фозилов Х.Ф., Садовский А.И. Узбекистонда фан тараккиёти. – Т.:,1959. -56 б.
10. Абид Садыкович Садыков занимал пост Призидента АН с 1966 по 1984 г.
11. Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси 50 йил. –Тошкент: «Фан», 1993. - 246 б.
12. Академия наук Узбекской ССР. –Т.:, «Фан», 1983. 559 с.